O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI MIRZACHO‘L TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 9 - oktabr 184-3-51-Q/23 Mirzacho‘l tuman hokimligi

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2024 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bob 39-moddasiga asosan “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlari”ga asosan Mirzacho‘l tuman hududidagi korxona va tashkilotlarda 2024 yil mobaynida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun 54 ta ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bob 39-moddasiga asosan, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, tashkilotlarning ro‘yxatdagi hodimlari o‘rtacha soni yigirma nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 7 foiz miqdorigacha,(shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 58 ta ish o‘rinlarini zaxiralash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bob 39-moddasiga asosan, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risidagi Qonunga asosan, korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib bo‘lingan shaxslar ish o‘rinlari 2024 yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan:

a) 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali, ota onalar uchun 7 foiz (25 kishi);

b) Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, ta’lim tashkilotlarini kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 10 foiz (21 kishi);

v) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi , Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar Vazirligi, Milliy gvardiya Davlat xafsizlik xizmati qo‘shinlaridagi muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 7 foiz (2 kishi);

g) nogironlar uchun 3 foiz (2 kishi);

d) pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 7 foiz (1 kishi);

y) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun, 7 foiz (2 kishi);

j) odam savdosi qurbonlari uchun 7 foiz (kishi)

z) Ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlmagan kasallikga chalingan fuqarolar uchun 7 foiz (1)

3. Shaxslarning koʻrsatib oʻtilgan toifalari uchun ish oʻrinlari sanitariya-gigiyena meʼyorlariga va xodim oʻz mehnat majburiyatlarini toʻsiqsiz bajarishini ta'minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq boʻlishi kerak.

4. Ish oʻrinlari zaxiraga qoʻyiladigan har bir korxona, tashkilot va muaasasalarda kasblar va lavozimlar roʻyxati keltirib oʻtilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasa rahbarlari yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qoʻyiladigan ish oʻrinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish oʻrinlari zaxiraga qoʻyilishi va tayyorligini ta'minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimini xabardor qilishi shart.

6. Muhtojlar uchun ish oʻrinlarining qolgan qismini zaxiraga qoʻyish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida taʼminlanadi bu haqda tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi birinchi chorak tamom boʻlgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambagʻllikni qisqartirish va bandlik boʼlimiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl boʻyicha muhtojlarni ishga joylashtirish toʻgʻrisida axborot taqdim etilsin.

7. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maʼmuriy jarima solinadi.

8. Belgilab qoʻyilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish boʻyicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani toʻlaganlik tashkilotni band qilib qoʻyiladigan ish oʻrinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

9. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qoʻyish sonidan ortiqcha ish oʻrinlari tashkil etilgan taqdirda ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq toʻlash; Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 martdagi PQ–4227-son 1 bob, 2 bandi. Bandlikka koʻmaklashish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan qoplanishi belgilansin.

10. Tuman Kambagʻllikni qisqartirish va bandlik boʼlimi bir xafta muddatda ushbu qarorni ilovada koʻrsatilgan tashkilot rahbarlari eʼtiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni taʼminlasin.

11. Ushbu qaror rasman eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi oʻrinbosari J.Lapasov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Axmedov**

Mirzacho‘l tuman hokimining
2023-yil 9-oktabrdagi
184-3-51-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman xudidida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo`lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi

TARKIBI

№	**F.I.SH**	**Lavozimi**
1	J.Lapasov	Tuman hokimining birinchi o`rinbosari - komissiya raisi
2	S.Baymatov	Kambag`llikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo’limi boshlig‘i - komissiya raisi o`rinbosari
3	M.Isroilov	Tuman inson ijtimoiy hizmatlar markazi direktori - komissiya a’zosi
4	O`.Xursanov	Tuman statistika bo`limi boshlig`I - komissiya a’zosi
5	I.Jafarova	Tuman KQ va BK bo’limi band bo`lmagan aholini isobga olish va ishga joylashtirish sho`basi bosh mutaxassisi - komissiya kotibi

Mirzacho‘l tuman hokimining
2023-yil 9-oktabrdagi
184-3-51-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Mirzacho‘l tumani bo‘yicha 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha

MANZILLI JADVAL

№	Topshiriq belgilangan korxona nomi	Korxonani INN raqami	korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:								Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar					
					14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatil-ganlar	Nogiron-lar uchun	Pensi-ya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasa-laridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majbur-lov choralari qo‘llanil-gan shaxslar uchun	Odam savdo-si qurbo-ni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun hujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun (20.03.1997 yil VM-153-son qarori)	Sil kasalligi	Onkolo-giya kasallik-lari, yangidan paydo bo‘ladi-gan xatarli o‘simtalar	Jinsiy yo‘l bilan o‘tadi-gan kasal-liklar	SPID	Moxov (lepra) kasal-ligi	Ruhiy kasal-liklar
1	Mirzacho‘l tumani tibbiyot birlashmasi	200339093	599	6	2	2			1			1	1					
2	Mirzacho‘l tuman 18-UO‘T maktabi	203226374	106	2	1	1												
3	Mirzacho‘l tumani xokimligi Obodonklashtirish boshqarmasi	200339061	93	3			1	1		1								
4	"Faxr mo‘min teks" MCHJ	305490084	85	5	1	1	1	1		1								
5	Mirzacho‘l tuman 10-UO‘T maktabi	206901894	76	1	1													
6	Mirzacho‘l tuman 1-UO‘T maktabi	203243354	74	1	1													
7	Mirzacho‘l tuman 3-UO‘T maktabi	206901823	71	1		1												
8	Mirzacho‘l tuman 2-UO‘T maktabi	203701378	68	1	1													
9	Mirzacho‘l tuman "Binafsha" 2-sonli DMTT	207029023	68	1	1													
10	Mirzacho‘l tuman 11-UO‘T maktabi	206901902	66	1		1												
11	Mirzacho‘l tuman 12-UO‘T maktabi	206901919	58	1		1												
12	Mirzacho‘l tuman 5-UO‘T maktabi	206901847	57	1		1												
13	Mirzacho‘l tuman 8-UO‘T maktabi	206901879	55	1		1												
14	Mirzacho‘l tuman 17-UO‘T maktabi	206901965	52	1		1												

15	Mirzacho‘l tuman Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	20711481	250	1		1												
16	Mirzacho‘l tuman Xalq ta’lim bo‘limi	20033918	945	1		1												
17	Mirzacho‘l tuman 20-sonli ixtisoslashtirilgan UO‘T maktabi-internati	20690198	042	1	1													
18	Mirzacho‘l tuman 16-UO‘T maktabi	20690195	844	1	1													
19	Mirzacho‘l tuman 9-UO‘T maktabi	20690188	648	1		1												
20	Mirzacho‘l tuman 4-UO‘T maktabi	20690183	046	1		1												
21	Mirzacho‘l tuman 6-UO‘T maktabi	20690185	445	1		1												
22	Mirzacho‘l tuman 13-UO‘T maktabi	20690192	641	1		1												
23	Tuman yo‘l xo‘jalik pudrat ta’mirlash foydalanish korxonasi	20033917	241	1		1												
24	Mirzacho‘l tuman 15-UO‘T maktabi	20690194	138	1		1												
25	Mirzacho‘l tuman "Baxor " 16-sonli DMTT	20714881	838	1	1													
26	Mirzachul tumani Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi	20100022	337	1	1													
27	Mirzacho‘l tuman 14-UO‘T maktabi	20690193	437	1	1													
28	Mirzacho‘l tumani "Barkamol avlod" bolalar markazi	20712330	336	1	1													
29	Mirzacho‘l tuman "Uchqun" 1-sonli DMTT	20700619	435	1	1													
30	Mirzacho‘l tuman "Oltin kalitcha " 7-sonli DMTT	20705098	935	1	1													
31	Mirzacho‘l tuman "Dilnoza " 9-sonli DMTT	20705095	735	1	1													
32	Mirzacho‘l tuman "Nurli quyosh" 6-sonli DMTT	20702904	733	1	1													
33	Mirzacho‘l tuman 7-UO‘T maktabi	20690186	232	1	1													
34	Mirzacho‘l tuman "Kamalak " 5-sonli DMTT	20702959	232	1	1													
35	Mirzacho‘l tuman "Shirintoy" 4-sonli DMTT	20702907	930	1	1													
36	Mirzacho‘l tumani 13-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi	20179747	428	1		1												
37	Mirzacho‘l tuman "Boychechak" 11-sonli DMTT	20705097	228	1	1													
38	Mirzacho‘l tuman "Lola" 10-sonli DMTT	20705094	026	1	1													
39	Mirzacho‘l tuman "Nixol" 3-sonli DMTT	20702903	025	1		1												
40	Mirzacho‘l tuman "Navro‘z" 13-sonli DMTT	20702992	524	1	1													
41	Mirzacho‘l tuman Irrigatsiya bo‘limi	20726391	323	1	1													
42	Gagarin shaxar madaniyat va aholi dam olish markazi	20033923	622	1		1												
JAMI:				**54**	**25**	**21**	**2**	**2**	**1**	**2**		**1**						